



UO'K: 37.013.43

**PEDAGOGLAR KASBIY FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA RAQAMLI
TEKNOLOGIYALARNING IMKONIYATLARI****ВОЗМОЖНОСТИ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ПОВЫШЕНИИ ЭФФЕКТИВНОСТИ
ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ПЕДАГОГИ****POSSIBILITIES OF DIGITAL TECHNOLOGIES IN INCREASING THE EFFECTIVENESS
OF PROFESSIONAL ACTIVITIES OF TEACHERS**

Turakulov Yunusali Yusufjonovich 
Farg'ona davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya

Maqolada pedagoglar kasbiy faoliyatini samarali tashkil etishda bugungi zamonaviy raqamli texnologiyalarning o'рни haqida so'z boradi. Butun dunyoda bo'lgani kabi mamlakatimizda ham ta'limga raqamli texnologiyalarni keng joriy qilish, uning imkoniyatlaridan ta'lim sifati va pedagogning kasbiy faoliyati samaradorligiga erishishda ratsional foydalanish masalalari dolzarblik kasb etayotganligi, ulardan ta'limga mos xoldagi kontenglar yaratish davr talabiga aylanayotganligi masalalari batafsil ko'rib chiqilgan. Shuningdek, mamlakatimiz ta'lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etish, ulardan pedagoglarning professional kasbiy faoliyatini namoyon qilishlari bilan uyg'unlashtirish masalalari bilan shug'ullangan tadqiqotchilarning xulosalari ham ahamiyat qaratilgan.

Аннотация

В данной статье приобретают актуальность вопросы широкого внедрения цифровых технологий в образование в нашей стране, рационального использования их возможностей для достижения качества образования и эффективности профессиональной деятельности педагога, а также вопросы создания контента, подходящего образованию у них становится требованием времени. Также дана научная оценка вопросу путем разъяснения содержания понятий цифровизация, цифровая экономика и цифровые технологии, их определений в словарях.

Abstract

In this article, the issues of widespread introduction of digital technologies in education in our country, the rational use of their capabilities to achieve the quality of education and the effectiveness of the professional activity of a teacher, as well as the issues of creating content that suits their education is becoming a requirement of the time, become relevant. A scientific assessment of the issue is also given by explaining the content of the concepts of digitalization, digital economy and digital technologies, and their definitions in dictionaries.

Kalit so'zlar: Shaxs, jamiyat, raqamli texnologiyalar, axborot kommunikatsion tizimlar, innovatsion yondashuv, individual kompetensiya, professional kompetensiya.

Ключевые слова: Личность, общество, цифровые технологии, информационно-коммуникационные системы, инновационный подход, индивидуальная компетентность, профессиональная компетентность.

Key words: Personality, society, digital technologies, information and communication systems, innovative approach, individual competence, professional competence.

KIRISH

Jahonda ta'limga raqamli texnologiyalarni keng joriy qilish, uning imkoniyatlaridan ta'lim sifati va pedagogning kasbiy faoliyati samaradorligiga erishishda ratsional foydalanish masalalari dolzarblik kasb etmoqda. Bugun raqamli texnologiyalar vositasida pedagog professionalizmini shakllantirish, vaqt tejamkorligi asosida faoliyat unumdorligiga erishish va o'qitish imkoniyatlarini oshirish vazifalari kun tartibida turibdi. Ayniqsa raqamli texnologiyalar vositasida masofaviy, frontal, korporativ, maqsadli ta'limning ommalashuvi pedagogning professional kompetentligini rivojlantirish zarurtini ham oshirib yubormoqda. Shu bois bugungi zamonaviy pedagogikada pedagoglarning raqamli texnologiyalardan oqilona va samarali foydalana olish darajasini rivojlantirish asosida ularning professional kasbiy kompetentligini shakllantirish ehtiyoji yuzaga kelmoqda.

ILMIY AXBOROT

Dunyoning ilg'or ilmiy tadqiqot institutlari va xalqaro markazlarida pedagoglarning kasbiy kompetentligini oshirish, ularning professional pedagogik faoliyat yuritishlarini ta'minlash, pedagogik jarayon omilkorligiga erishish, ta'lim sifati va samaradorligini ta'minlash, bu jarayonda raqamli texnologiyalar imkoniyatlaridan ratsional foydalanishga doir bir qancha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Shu bilan birga raqamli texnologiyalarni puxta o'zlashtirish asosida pedagoglarning professional kompetentligini rivojlantirish metodikasini yaratishga doir ilmiy izlanishlar amalga oshirilmoqda. Bu orqali pedagoglarning kasbiy faoliyatida yuksak natijalarga, ta'lim sifati va kadrlar tayyorlash samaradorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatishlariga erishish, raqamli texnologiyalar vositasida ta'lim berishning innovatsion tizimini yaratishning nazariy-metodologik asoslari muntazam takomillashtirish maqsad qilinmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

O'zbekistonning yangi rivojlanish bosqichida "taraqqiyotga erishish uchun raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini egallash shart va zarurligi, bu bizga rivojlanishning eng qisqa yo'lidan borish imkonini berishi" [1; 24-b.] xulosa qilinib, bu borada Yangi O'zbekiston Strategiyasida aniq vazifalarni belgilab olinishi ham mamlakatimizda raqamli texnologiyalar imkoniyatidan oqilona foydalanish zaruratini asoslaydi. Bu esa pedagoglarning professional kompetentligini rivojlantirishda raqamli texnologiyalardan foydalanish vazifalarini yuzaga chiqaradi. Buning uchun esa "ta'lim sohasida raqamli ko'nikmalarni oshirish maqsadida, avvalo, ta'lim pog'onasining boshlang'ich bosqichida o'quvchilarga raqamli texnologiyalarni taqdim etish orqali raqamli ko'nikmalarni o'zlashtirish uchun imkoniyatlar yaratish, kelajakda zarur bo'ladigan keng ko'lamli raqamli transformatsiya sharoitida yoshlarga bilim va ko'nikmalar berish bilan bog'liq tizimli tadbirlar amalga oshirilishi darkor" [1; 192-b.] Shu bois, pedagogik faoliyatni raqamli texnologiyalar vositasida mazmunli qilish, jarayonni modernizatsiyalashni dolzarb vazifaga aylantiradi.

Ta'lim sifati va pedagoglar kasbiy faoliyati samaradorligini oshirida raqamli texnologiyalar imkoniyatlaridan omilkor foydalanish masalalari ko'plab G'arb, MDH va mamlakatimiz olimlari tomonidan tadqiq etilgan va bugungi kunda ham mazkur jarayon tizimli amalga oshirilib kelinmoqda.

G'arb mamlakatlarida ta'limda raqamli texnologiyalardan foydalanish va pedagoglarning kasbiy faoliyatini modernizatsiyalash masalalari V.F.Nyumen, G.S.Diori, Marta R.Korbella, R.F.Sprol, A.Kroupley, P.Dripiyu, B.Krovell, D.Schaffer, A.V.Pirson kabi olimlar tomonidan tadqiq etilgan.

MDH mamlakatlarida pedagoglarning professional bilim va ko'nikmalarini raqamli texnologiyalar vositasida rivojlantirish masalalari G.V.Abramyan, V.V.Aleynikov, R.S.Arefyev, V.Bespalko, N.Gomulina, V.V.Davidov, M.V.Seliverstova, V.D.Shadrikovlar tomonidan o'rganilgan.

O'zbekistonda ham ta'lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etish, ularni pedagoglarning professional kasbiy faoliyatini namoyon qilishlari bilan uyg'unlashtirish masalalari ko'plab olimlar tomonidan o'rganilgan. Xususan, M.M.Aripov, U.SH.Begimqulov, M.Ochilov, D.I.Yunusovalar [2] tomonidan axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning metodikasi, B.S.Abdullayeva, S.D.Bazarova, N.A.Muslimovlar [3, 4, 5] tomonidan pedagoglarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish mexanizmlarini yaratish masalalari o'rganilgan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

O'zbekistonning yangi taraqqiyot bosqichida ta'lim tizimini isloh qilish, unga innovatsion yondashuvlarni olib kirish, pedagoglar tayyorlashni yangi sifat bosqichiga olib chiqish orqali ta'lim sifati va samaradorligini rivojlangan mamlakatlar darjasiga olib chiqish maqsad qilinmoqda. Bu esa pedagoglarning professional kasbiy ko'nikmalarini rivojlantirish vazifalarni yuzaga keltirmoqda. Chunki pedagogning professional bo'lishi uning kasbiy faoliyati samaradorligini keltirib chiqaradi.

Buning uchun esa, avvalo ko'pgina holatda sinonim so'zlar sifatida qo'llaniladigan pedagogik mahorat, kasbiy tayyorgarlik, pedagogik muloqot, pedagogik texnika, shuningdek, «kompetensiya» va «kompetentlik» tushunchalarining mohiyatini aniqlashtirib olish zarur. Shuning uchun pedagogik mahorat tushunchasining mazmun mohiyati, tariflanishi va komponentlarini ko'rib chiqamiz.

Hozirgi zamon pedagogikasi va psixologiyasi «pedagogik mahorat» tushunchasiga turlicha izoh beradi. Jumladan, "Pedagogik ensiklopediya"da ta'rif quyidagicha izohlangan: "O'z kasbining mohir ustasi bo'lgan, yuksak darajada madaniyatli, o'z fanini chukur biladigan, yondash fanlar

sohalarini yaxshi tahlil eta oladigan, tarbiyalash va o'qitish uslubiyatini mukammal egallagan mutaxassis» [7: 10-b.]. Ushbu ta'rifning mohiyatidan kelib chiqib o'qituvchining pedagogik mahorati tushunchasi mazmunini shunday izohlash mumkin:

- 1) madaniyatning yuqori darajasi, bilimdonlik va aql zakovatning yuksak ko'rsatkichi;
- 2) o'z faniga doir bilimlarning mukammal sohibi;
- 3) pedagogika va psixologiya kabi fanlar sohasidagi bilimlarni puxta egallaganligi, ulardan kasbiy faoliyatida foydalana olishi;
- 4) O'quv - tarbiyaviy ishlar metodikasini mukammal bilishi.

Pedagogik mahorat tizimi quyidagi o'zaro bir-biri bilan bog'liq bo'lgan asosiy komponentlardan iborat:

- 1) pedagogik insonparvarlik yo'nalishi;
- 2) kasbga oid bilimlarni boshqa fanlar bilan aloqadorlikda mukammal bilish;
- 3) pedagogik qobiliyatga ega bo'lish;
- 4) pedagogik texnika sirlarini puxta egallash [7: 10-b.]. Demak, pedagogik mahorat pedagogik ijodkorlik, pedagogik texnika, ta'lim - tarbiya jarayonida ishtirokchilarning o'zaro hamkorligi, muloqot olib borish taktikasi, nutq madaniyati, tafakkurini shakllantiruvchi jarayonga nisbatan ishlatiladi.

– Tus olim I.P. Rachenko pedagogik mahoratni pedagogik san'atning bir qismi sifatida ta'riflab, shunday yozadi: Pedagogik mahorat deganda o'qituvchining pedagogik-psixologik bilimlarni, kasbiy malaka va ko'nikmalarni mukammal egallashi, o'z kasbiga qiziqishi, rivojlangan pedagogik fikrlashi va intuitsiyasi, hayotga axloqiy-estetik munosabatda bo'lishi, o'z fikr mulohazasiga ishonchi va qat'iy irodasi tushuniladi. Tadqiqotchilarning fikriga, ko'ra, quyidagi to'rtta komponent pedagogik mahoratning asosiy tashkil etuvchilari hisoblanadi:

- • pedagogik kasbiga sadoqat;
- • o'z fanini o'qitish metodikasini mukammal bilishi;
- • pedagogik qobiliyatlarini namoyish eta olishi;
- • pedagogik texnikani o'z o'rnida ko'llay bilishi.
- Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib, aytish mumkinki, pedagogning professional pedagogik tayyorgarligini shartli ravishda quyidagicha tasniflash mumkin:

- 1) pedagogning shaxsiy fazilatlar bo'yicha tayyorgarligi;
- 2) pedagogning ruhiy - psixologik tayyorgarligi;
- 3) pedagogning ijtimoiy - pedagogik va ilmiy - nazariy jihatdan tayyorgarligi;
- 4) pedagogning maxsus va ixtisoslikka oid uslubiy bilimlarni egallab borishi.

– Shuningdek, pedagogik faoliyat samaradorligini belgilab beruvchi yana bir jihat pedagogik qobiliyat hisoblanadi. Qobiliyat - shaxsning individual-psixologik xususiyati bo'lib, muayyan faoliyat yuzasidan layoqati va ishni muvaffaqiyatli amalga oshirish subyektiv shart-sharoitini ifodalovchi individual psixik sifatlar yig'indisiga aytiladi, zarur bo'lgan bilim, malaka va ko'nikmalarni egallash dinamikasidagi farqparni aniqlaydi. "Qobiliyatlar individual-psixologik xususiyat bo'lgani sababli, shaxsning boshqa sifatleri va xususiyatlariga, ya'ni aql sifatlariga, xotira va xarakter xususiyatlariga, his-tuyg'ulariga qarama-qarshi qo'yilmaydi, balki ular bilan bir qatorga qo'yilishi kerak. Govard Gardner qobiliyatlarni intellektlar to'plami deb atadi vauning yetgata jihatini ajratib ko'rsatdi. Biz intellektning ushbu jihatlaridan oltitasini o'qituvchi pedagogik mahoratini takomillashtirish nuqtai nazaridan tahlil qilishimiz mumkin. Psixolog olim Ol'ga Matveyeva ushbu jihatlarni psixologik texnologiya bilan kuchaytirib modifikatsiyalaydi va o'qituvchining kasbiy faoliyatida muhim ahamiyat kasb etishini ta'kidlaydi. Pedagogikada o'qituvchi qobiliyati - bu imkoniyatdir, uning mohirligi zaruriy darajasi faqatgina o'qitish va tarbiyalash jarayonida takomillashib boradi va yutuqlarga erishishida zamin yaratadi. Tug'ma qobiliyatlar zehn deyiladi. Iqqidor, iste'dod, daholik - insonning ijodiy faoliyati jarayonida erishiladigan qobiliyatlarning rivojlanish bosqichlari hisoblanadi. Qobiliyatlar, xarakger kabi, - shaxsning faqatgina ma'lum faoliyatidagina mavjud bo'lgan sifatlaridir" [7: 44-b.]. Demak, pedagogik qobiliyat jarayonda shakllanuvchi jihat hisoblanadi.

ILMIY AXBOROT

– Pedagogning pedagogik faoliyatida ta'lim oluvchilar bilan olib boradigan muloqoti muhim ta'lim-tarbiyaviy ahamiyatga ega. Bu pedagogik muloqotning butun tizimida uning ma'naviy mazmundorligini oshirishni talab etadi, zero aynan pedagogik muloqot, ta'lim-tarbiyaning ma'naviy asoslarini shakllantirishga qaratilgan. Ijtimoiy-psixologik, tarbiyaviy va ma'naviy vazifalarning murakkabligi o'qituvchining kommunikativ faoliyatiga yuksak talablarni qo'yadi. Pedagogning ta'lim oluvchilar bilan muloqot jarayonida yuz berishi mumkin bo'lgan turli ziddiyatli vaziyatlarni tezda bartaraf etishi uchun, avvalo, o'z iksh doriga, pedagogik mahoratiga tayanishi kerak. Pedagogik muloqot asosida erishiladigan yutuqlar o'qituvchining ijodiy mehnati mahsulidir. Bu mehnatning salbiy va ijobiy tomonlari bo'lishi shubhasiz [7: 81-b.]. Faqat har bir vaziyatni oqilona baholash, uni to'g'ri rejalashtirish, tarbiyaviy jarayonlarda aql-idrok bilan muloqotni tashkil etishning o'zi kifoya.

– Zamonaviy iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanish ta'lim tizimi oldiga qo'yayotgan talablar bilan bog'liqlikda o'tkazilgan ko'plab tadqiqotlarda kompetent yondashuv ta'lim mazmuni va metodlarini o'zgartirishning yangi bosqichi sifatida ko'rib chiqilgan. Ana shu nuqtai nazardan ko'plab tadqiqotlarda kompetensiya produktiv va ijodiy faoliyat uchun zarur o'zaro aloqador shaxsiy sifatlar majmui, kompetentlik esa, ma'lum sohaga doir biron-bir muammoni hal etishga imkon beruvchi shaxsning zaruriy kompetensiyalarni egallaganligi sifatida talqin etilgan.

– Kompetensiya (lotincha so'z bo'lib, erishaman, to'g'ri kelaman ma'nolarini bildiradi) – subyektning maqsadni qo'yish va unga erishish uchun tashqi va ichki zahiralarni samarali birga tashkil qila olishga tayyorgarligi, boshqacha qilib aytganda, bu subyektning muayyan kasbiy masalalarni yecha olishga shaxsiy qobiliyatidir [8].

– Shuni alohida ta'kidlab o'tish lozimki, «kompetensiya» tushunchasiga berilgan aksariyat ta'riflar kasbiy ta'lim, kasbiy faoliyat bilan bog'liqlikda bayon etilgan. Biroq umumiy o'rta ta'lim bilan bog'liqlikda mazkur tushuncha innovatsiya tavsifiga ega bo'lganligi sababli, uning mohiyatini aniqlashtirishga alohida ehtiyoj mavjud.

– Kompetensiya – ma'lum bir sohada samarali produktiv faoliyat uchun zarur bo'lgan o'quvchining avvaldan belgilangan ta'limiy tayyorgarligiga qo'yiladigan ijtimoiy talablar (meyorlar)dan ham o'zib ketishidir.

– Professional kompetentlik turli tanyach kompetensiyalarni integratsiyasi asisda shakllangan kompetentlikka nisbatan aytiladi. Tadqiqotchi olimlar N.A.Muslimov va M.B.Urazovalar professional kompetensiyani shakllantiruvchi bir birdang mustqail quyidagi kompetensiyalarni tasniflashadi:

– maxsus kompetensiya – yetarli yuqori darajada o'z kasbiy faoliyatini egallash, keyingi kasbiy rivojlanishini loyihalashtira olish;

– ijtimoiy kompetensiya – birgalikdagi kasbiy faoliyat, hamkorlikni egallash, o'z mehnati natijalariga ijtimoiy javobgarlik;

– shaxsiy kompetensiya – shaxsiy mustaqil aks etish va mustaqil rivojlanish usullari, shaxsning kasbiy deformatsiyalarga qarshi turish vositalarini egallashi;

– individual kompetensiya – kasb doirasida individuallikni mustaqil qo'llash va rivojlantirish usullarini egallash, kasbiy-shaxsiy o'sish, mustaqil tashkil qilish va mustaqil reabilitatsiya qilishga tayyorlik;

– asosiy kompetensiyalar – moslashish va mahsuldor faoliyat uchun zarur bo'lgan shaxsning madaniyatlararo va sohalararo bilim, qobiliyat va ko'nikmalari [6]. Demak, kompetensiya–kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan kasbiy bilimlarni egallash va ularni zamonaviy yondashuvlar asosida o'quv jarayonida qo'llashi bilan tavsiflanadi. Kasbiy tayyorgarligiga beriladigan talablar nuqtai nazaridan metodik kompetensiya pedagoglarning ma'lum bir vaziyatda kasbiy faoliyat usullarini qo'llash malakasini anglatadi.

– Professional kompetensiya – ta'lim va boshqaruv jarayonlarini samarali tashkil etish shakllari, usullari va vositalarini bilish, ularni o'zlashtirish, amalda qo'llash, kasbiy natijalarni sifatli tahlil qilish, ilg'or pedagogik va xorijiy tajribalarni o'rganish, o'quv jarayonini loyihalash, tavsiflanganlarni muvaffaqiyatli amalga oshirishga imkon beruvchi ko'nikmalar yig'indisi hisobalandi.

– Bugungi kunda ta'lim sohasida yuz bergan yangilanishlar pedagogning kasbiy malaka, ko'nikma va bilimlarini oshirishga undaydi, ya'ni zamonaviy pedagog o'zining metodik

kompetentligini rivojlantirishga zarurat sezadi. Bugungi kun oliy pedagogik ta'limining asosiy maqsadi – har tomonlama rivojlangan pedagogni tarbiyalashga qaratilgan. Pedagogning professional kompetensiyasini rivojlantirishda pedagogik va texnik-texnologik muammoli vaziyatni yaratish muhim bo'lib, pedagogik shart-sharoitlar bu jarayonni yaratibgina qolmay, uning hozirgi holatini ham belgilab beradi.

– Zamonaviy ta'limda pedagogning professional kompetentligini rivojlantirish bosqichma-bosqich, pedagogik turkum fanlarining integratsiyasi, fanlararo aloqadorlik darajasida innovatsion yondashuv asosida pedagogik faoliyatida hamda muammoli masalalarni hal qilish orqali amalga oshiriladi.

– Ta'lim tizimini rivojlantirishning strategik yo'nalishi – bu turli sohalarda maqsadli innovatsion yondashuv, uning intellektual va axloqiy rivojlanishiga asoslangan inson faoliyati. Dunyoning rivojlangan mamlakatlari bilan bir qatorda mamlakatimizda ta'lim islohotlari jarayonida innovatsion ta'limdan foydalanish muhim yo'nalish hisoblanadi.

– Pedagoglarning professional kompetentligini rivojlantirish ularni tayyorlashdagi eng qiyin vazifalardan biridir. Ayniqsa, ta'limni modernizatsiyalash davrida pedagogik faoliyatga moslashish muammosi tobora oydinlashib bormoqda.

– Pedagoglarning professional kompetentligini rivojlantirishning tarkibiy tuzilishi quyidagilardan iborat:

– - maxsus kompetensiya – pedagogik faoliyatni yetarli darajada bilishi, ularning kelajakdagi kasbiy rivojlanishini loyihalashtira olishi;

– - ijtimoiy ta'lim – birgalikdagi pedagogik faoliyat, hamkorlik, shuningdek, metodik muloqot usullarini o'zlashtirish, o'z kasbining natijalari uchun ijtimoiy javobgarlik.

– - kreativ-ilmiy faoliyat- pedagogning ilmiy dunyoqarashining muntazam o'sib borishi, ilmiy fikrlash tarzi asosida kreativ yondashuvlarni bera olishi.

– Pedagoglarning professional kompetentligi ixtiyoriy va hissiy fazilatlar, intellektual salohiyat, amaliy ko'nikmalar, o'zini o'zi boshqarish qobiliyatlari va shaxsning ijtimoiy-madaniy faoliyati darajasini aks ettiruvchi individual fazilatlarining o'zaro bog'liqligi asosida shakllanadi. Rivojlangan davlatlarda shakllangan ananaga muvofiq kasbiy malakada mutaxassisning metodik kompetentligi, uni rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'lim tizimi esa – bilim, ko'nikma va malakalar darajasi bilan o'lchanadi.

– Pedagoglarning ta'lim va tarbiya jarayonida professional kompetentlik turlariga quyidagilarni kiritishimiz mumkin: Ta'lim berish kompetentligi; tarbiyalay olish kompetentligi; ta'limning zamonaviy usullarini qo'llay olish kompetentligi; inson omilini ta'minlovchi fazilati; bilimlarni holisona baholash va nazorat qila olish kompetentligi.

– Pedagoglarning professional kasbiy sifatlariga quyidagi 13 ta sifatni kiritish mumkin:

– initsiativlik (tashabbuskorlik) (ijod, fikrlash va harakatni mustaqilligi);

– hamkorlik (o'zgaralar bilan konstruktiv va maqsadga yo'naltirilgan o'zaro ta'sir);

– jamoada ishlash (ishchi guruhda o'quv faoliyatini guruhviy shakllarini keng qo'llashga majbur qiladigan o'zaro ta'sir);

– o'zaro ta'lim (noformal va formal, murabbiylik, maslahat berish);

– o'zini baholash (bu ko'nikma ham o'zini, ham kursdoshlari ishini baholashda tajribani sezilarli kengayishini talab etadi);

– kommunikatsiya (og'zaki, yozma, kompyuter kommunikatsiyalari, tinglash, o'qish, tushunishni bilish va olingan ma'lumotlar ma'nosini to'g'ri talqin etishga ega bo'lishga xosdir);

– mantiqiy fikrlashni bilish (ham induktiv va ham deduktiv usullardan foydalanib mantiqiy argumentlarni baholash va olg'a surish);

– muammolarni hal qilish (muammolarni identifikatsiyalash, mumkin bo'lgan qarorlarni izlash va ularni oqibatlarini tahlil qilish);

– qarorlarni qabul qilish (muqobillarini tanlashda muammolarni hal qilishni uzlyuksiz amaliyotni talab etadi);

– ma'lumotlarni olish va foydalanish (kerakli axborotlarni tanlash, uning manbaalarini bilish, undan qarorlar qabul qilish maqsadida foydalanishni bilish);

– rejalashtirish (maqsadni belgilash, ishlarni baholash uchun ustunliklarni aniqlash);

ILMIY AXBOROT

– o‘qishni bilish (yangi bilimlarni egallashni amalga oshiruvchi kognitivlik);
– ko‘p madaniyatlilik (tilga, kommunikatsiya tipi va qadriyatlar tizimi nuqtai nazaridan farq qiluvchi turli madaniyat vakillari bilan ishlashni bilish). Demak, kompetentlik – pedagogning shaxsiy va ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan kasbiy faoliyatni amalga oshirishi uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarni egallashi va ularni kasbiy faoliyatda qo‘llay olishi bilan tavsiflanadi. Ayni paytda kompetensiya tushunchasining mohiyati to‘liq ochib berilgan bo‘lib, u ikki jihatdan namoyon bo‘ladi: kompetensiya talabalarning shaxsiy fazilatlarini to‘plami va kasbiy sohaning asosiy talablari sifatida.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, pedagoglarning professional kompetentligining shakllanishi va rivojlanishi – bu ijodiy rivojlanish, pedagog atrofda o‘zgarishlarga tez moslasha olish, tez kirishish qobiliyati, jarayonning ijtimoiy-iqtisodiy va ma‘naviy rivojlanishiga nisbatan ishlatiladi.

Pedagoglarning professional kompetentligini rivojlantirish pedagogik madaniyatni takomillashtirish, o‘rganishga qiziqishning rag‘batlantiruvchi omili sifatida ishlab chiqilishi kerak. Muammoni hal etishning muhim omili pedagoglarning metodik kompetentligini oshirish, kasbiy bilim va ko‘nikmalarini chuqurlashtirishdir.

Pedagogning professional kompetentligini innovatsion yondashuv asosida rivojlantirish ta‘lim muammolari, muloqot yo‘llari haqida to‘liq tasavvur beradi. Hodisani har tomonlama nazariy, uslubiy va amaliy o‘rganish innovatsion yondashuv asosida pedagogning metodik kompetensiyasining rivojlanish darajasini tizimli aniqlashda yuzaga keladigan yondashuvni taqdim etishga imkon beradi. Harakat tartibi hamda ularning tarkibi pedagoglarning aqliy va amaliy imkoniyatlarini hisobga olib yetarli darajada ishlab chiqilishi zarur. Har qanday ta‘lim texnologiyasi ba‘zi bir metodologik talablarga yoki texnologik mezonlarga javob bera olishi lozim.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. –Тошкент.: Ўзбекистон. 2021. –Б. 24.
2. Абдуқодиров А.А., Пардаев А.Х. Масофали ўқитиш назарияси ва амалиёти. -Тошкент: Фан, 2009 . - 145
3. Абдуллаева Б.С. Фанлараро алоқадорликнинг методологик-дидактик асослари (Ижтимоий-гуманитар йўналишлардаги академик лицейларда математика ўқитиш мисолида): Пед.фан.докт....дисс. автореф. -Т.: 2006, -49 б.;
4. Базарова С.Д. Олий техник таълимда касбий йўналтирилган ўқитиш технологияларининг тизимли асосланиши: Пед.фан.докт....дисс. автореф. -Т., 2009, -36 б.;
5. Муслимов Н.А. Касб таълими ўқитувчисини касбий шакллантиришнинг назарий-методик асослари.: пед. фан. док. ... дисс. автореф. - Тошкент: ТДПУ, 2007. -47 б.
6. Муслимов Н.А., Уразова М.Б., Эшпулатов Ш.Н. Касб таълими ўқитувчиларининг касбий компетентлигини шакллантириш технологияси. – Т.: Fan va texnologiya, 2013. – Б.6.
7. Холиқов А. Педагогик маҳорат. Тошкент. Iqtisod-moliya. 2010. –Б. 10.
8. Педагогический словарь. /Под. ред. В.И.Загвязинского, А.Ф.Закировой. – Москва.: Академия, 2008. – С.41.